



MILLIY XO‘JALIKNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TIZIMINI TRANSFORMATSIYALASHNING INNOVASION OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18189450>

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Besh tashabbus, klub va to‘garaklar faoliyatini
muvofiglashtirish markazi bosh mutaxassisi*

Nazarov G‘ayrat Olim o‘g‘li

nazarovg717@gmail.com

+998 99 500 00 12

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
(Ilmiy rahbari) Mustaqil izlanuvchi (PhD)*

Kandaxarov Zafar Ishratovich

Orcid ID: 0009-0007-1863-0413

+998 93 001 99 95

ANNOTATSIYA. *Mazkur ilmiy tadqiqotda milliy xo‘jalikning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini transformatsiyalash jarayonidagi innovasion omillarning roli va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsion faoliyat, texnologik modernizatsiya, raqamli iqtisodiyot va bilimga asoslangan ishlab chiqarishning milliy xo‘jalik tuzilmasiga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, iqtisodiy o‘sish va barqarorlikka erishishda innovasion rivojlanish strategiyalarining samaradorligi tahlil qilinadi. O‘zbekiston misolida milliy xo‘jalikni transformatsiyalashda innovatsiyalarni tatbiq etishning dolzarb muammolari va imkoniyatlari yoritilgan.*

KALIT SO‘ZLAR: *Milliy xo‘jalik, ijtimoiy-iqtisodiy tizim, transformatsiya, innovatsiya, texnologik rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, sanoat modernizatsiyasi, innovasion siyosat, barqaror iqtisodiy o‘sish.*

KIRISH

Milliy xo‘jalikning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini transformatsiyalash jarayoni o‘zgaruvchan global iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, mavjud muammolarni hal qilishni talab etadi. Ushbu ilmiy tadqiqot innovatsion omillar asosida milliy xo‘jalikni transformatsiyalash jarayonlarini tahlil etishga qaratilgan.

Bugungi kunda, texnologik inqilob, raqamli iqtisodiyot va global iqtisodiy integratsiya jarayonlari milliy iqtisodiyotlarga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlar iqtisodiy rivojlanishni yangilash, samaradorlikni oshirish va barqaror o‘sishni ta’minlashga olib keladi.

Innovatsion omillarni milliy xo‘jalikning ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga



muvaffaqiyatli integratsiya qilish, ishlab chiqarish va xizmatlar sektori samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Ushbu ilmiy tadqiqot innovatsion transformatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarini o'rganish, milliy iqtisodiyotda innovatsion tizimlarning rolini aniqlash va bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga intiladi.

Bugungi kunda innovatsion jarayonlar, xususan, raqamli iqtisodiyot va yangi texnologiyalar, milliy xo'jalikni modernizatsiyalashda hal qiluvchi omillarga aylangan. Innovatsion omillar orqali iqtisodiyotning turli sohalarida yuqori texnologiyalarni qo'llash va mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va yashash sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, innovatsion transformatsiyaning amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar ham ahamiyatlidir.

Mavzuning dolzarbligi, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikka qo'shadigan hissi, shuningdek, davlat siyosatining roli ushbu ilmiy tadqiqotning ilmiy-amhaliy ahamiyatini oshiradi. Ushbu ishda innovatsion omillarning milliy xo'jalikni transformatsiyalash jarayonidagi o'rni, iqtisodiyotga ta'siri va ularni amalga oshirish uchun zarur sharoitlar tahlil qilinadi. Bunga asoslanib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuning dolzarbligi: Bu mavzu nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham

katta ahamiyatga ega. Misol uchun, milliy xo'jalikning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini innovatsion omillar asosida transformatsiyalash mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va yashash sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi iqtisodiyotning turli sohalarida kutilgan o'zgarishlarga olib keladi, shu jumladan texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi biznes modellarini shakllantirishga imkon yaratadi.

Globalizatsiya, raqamli iqtisodiyotning jadallashuvi va barqaror rivojlanish tamoyillarining ahamiyat kasb etishi sharoitida har bir davlat o'zining milliy xo'jalik tizimini zamon talablari asosida transformatsiya qilish zaruriyatiga duch kelmoqda. Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni kuchaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni samarali boshqarish orqali milliy raqobatbardoshlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan buyon bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda bozor iqtisodiyotiga o'tish, xususiy sektorni rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida sezilarli natijalarga erishildi. Biroq bu transformatsiya



jarayonlari hali o'zining yakuniy samarasini bermagan bo'lib, uni chuqurlashtirish va tizimli tarzda boshqarish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda transformatsiyani jadallashtiruvchi asosiy omillardan biri sifatida innovatsion omillar alohida o'rin tutadi. Texnologik yangiliklar, bilimga asoslangan iqtisodiyot, inson kapitalining rivojlanishi va raqamli infratuzilmaning kengayishi milliy xo'jalikning barcha sohalarida sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishni ta'minlab beradi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni iqtisodiy va ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun ilmiy asoslangan yondashuv zarur.

Shu nuqtai nazardan, milliy xo'jalikning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini transformatsiyalashda innovatsion omillarni chuqur tahlil qilish, ularning amaliy imkoniyatlarini aniqlash hamda takliflar ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ushbu ehtiyojlarga javob berib, O'zbekiston iqtisodiyotida chuqur islohotlarni ilmiy asosda rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Global va regional kontekst: Milliy iqtisodiyotdagi innovatsion transformatsiya jarayoni nafaqat rivojlangan mamlakatlar, balki rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun ham o'ta dolzarbdir. Xususan, global iqtisodiy o'zgarishlar va raqamli transformatsiya jarayonlari rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu jarayonlar sanoatning

texnologik modernizatsiyasi, yangi sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va raqamli iqtisodiyotning kengayishi orqali milliy xo'jalikning yanada modernizatsiyalashuviga olib keladi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati: Ushbu ilmiy tadqiqot innovatsion omillar asosida milliy iqtisodiy tizimni transformatsiyalash jarayonini ilmiy yondoshuv bilan o'rganadi va yangi ilmiy natijalar keltiradi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy rivojlanishning yangi usullarini ishlab chiqishga, yangi yondoshuvlarni qo'llashga va iqtisodiy transformatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mavzu ijtimoiy-iqtisodiy tizimning global o'zgarishlarga moslashuvi va yangi iqtisodiy tizimlarni shakllantirishdagi roli haqida yangi nazariy va amaliy ma'lumotlar taqdim etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Milliy xo'jalikni transformatsiyalashning innovatsion omillarini o'rganish, ularning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish, hamda bu jarayonni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni ko'rsatish. Shuningdek, innovatsion transformatsiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish ham muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi: Milliy xo'jalikning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini chuqur tahlil qilish orqali uni transformatsiyalash jarayonlarida innovatsion omillarning rolini aniqlash, ularning samarali integratsiyasi uchun



ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy vazifalari: Milliy xo'jalik va ijtimoiy-iqtisodiy tizimning nazariy asoslarini o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash.

Transformatsiya tushunchasi va innovatsion rivojlanishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va transformatsiya jarayonlarining holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash;

Milliy xo'jalikda innovatsion omillarning mavjudligini va ularning transformatsiyaga ta'sirini baholash;

Xorijiy tajribani o'rganish asosida O'zbekistonga mos keladigan transformatsion modellarning asosiy elementlarini aniqlash;

Innovatsion omillarni ijtimoiy-iqtisodiy tizimga integratsiya qilish yo'nalishida takliflar ishlab chiqish;

Transformatsiyani tezlashtirishga xizmat qiluvchi strategik yondashuvlar va amaliy choralarni asoslash;

Tadqiqot obyekti- O'zbekiston Respublikasining milliy xo'jaligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi.

Tadqiqot predmeti- Milliy xo'jalik tizimini transformatsiyalash jarayonida innovatsion omillarning shakllanishi, roli va ta'sir mexanizmlari.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu ilmiy tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuv va usullar qo'llanilgan:

Tizimli yondashuv- ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning o'zaro bog'liqligi va dinamikasini aniqlash;

Kompleks tahlil-milliy xo'jalik transformatsiyasiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni baholash;

Taqqoslash usuli-xalqaro tajriba asosida o'zbek modeli bilan qiyosiy tahlil;

Statistik tahlil- iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida transformatsiya jarayonlarining holati va dinamikasini aniqlash;

Ekspert baholash- innovatsion siyosat va amaliyotdagi mavjud muammolarni aniqlashda mutaxassislarning fikrlariga tayangan holda tahlil qilish;

Scenario usuli- innovatsion omillarning uzoq muddatli ta'sirlarini baholash uchun turli rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish.

Ilmiy yangilik: Ilmiy tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Milliy xo'jalikni transformatsiyalashda innovatsion omillarning ta'sir mexanizmi tizimli asosda ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Innovatsion omillarni klassifikatsiyalash va ularni transformatsion jarayonga integratsiya qilish bo'yicha yangi yondashuv taklifi etildi.

O'zbekiston sharoitida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimni innovatsion rivojlanish asosida takomillashtirish uchun amaliy takliflar ishlab chiqildi.



Transformatsiya jarayonining bosqichlari bo'yicha (strukturaviy, texnologik, institutsional) innovatsion strategiyalar asosida model ishlab chiqildi.

Ilmiy tadqiqot asosida milliy xo'jalikni transformatsiyalashda xalqaro tajribani moslashtirish bo'yicha takliflar berildi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijalari milliy xo'jalikni zamonaviylashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni transformatsiyalashda innovatsion omillarni chuqur tahlil qilish orqali quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

Milliy xo'jalikni boshqarishda innovatsion yondashuvlarni shakllantirish uchun ilmiy asoslangan nazariy model ishlab chiqildi;

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim transformatsiyasida innovatsion omillarning samarali integratsiyasi uchun uslubiy asoslar ishlab chiqildi;

Transformatsion jarayonlarga ta'sir etuvchi innovatsion omillarni aniqlash orqali davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

Mahalliy va tarmoq darajasida rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llash mumkin bo'lgan takliflar ilgari surildi.

Bu tadqiqot nafaqat ilmiy asoslash uchun, balki iqtisodiyotni amaliy boshqaruvda innovatsion rivojlanish tamoyillarini joriy etishda ham qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining tatbiq etilishi mumkin bo'lgan sohalar:

Iqtisodiy siyosat va rejalashtirish — innovatsion rivojlanishga asoslangan strategik hujjatlar ishlab chiqishda;

Davlat boshqaruvi va iqtisodiyot vazirliklari — transformatsion siyosatga oid qarorlar qabul qilishda;

Tarmoq va hududiy rivojlanish dasturlari — sektorlar (sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar) kesimida innovatsiyalarni tatbiq etishda;

Ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy o'quv yurtlari — milliy xo'jalik va innovatsion rivojlanish bo'yicha ilmiy-uslubiy materiallar sifatida;

Texnoparklar va innovatsion markazlar — iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun ilg'or g'oyalarni sinovdan o'tkazishda.

XULOSA

qilib shuni aytish mumkinki tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy xo'jalikning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini muvaffaqiyatli transformatsiya qilishda innovatsion omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Innovatsion yondashuvlar va texnologik yangilanishlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, iqtisodiy tuzilmani diversifikatsiya qiladi va raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan olib borilayotgan innovatsion siyosat, ilm-fan va ta'lim bilan iqtisodiyot integratsiyasining kuchaytirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotda milliy xo'jalikni transformatsiyalashda innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фридман М. «Капитализм и свобода». – М.: Новое издательство, 2019.
2. Lundvall B.-Å. "National Systems of Innovation: Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning". – London: Pinter, 1992.
3. Porter M. E. "The Competitive Advantage of Nations". – New York: Free Press, 1990.
4. Назаров Ш. Қ. “Иқтисодиётни модернизациялаш ва инновацион тараққиёт стратегияси”. – Т.: “Иқтисодиёт”, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Инновацион ривожланиш стратегияси” тўғрисидаги фармони, 2018 йил.
6. Dosi G., Freeman C., Nelson R., Silverberg G., Soete L. “Technical Change and Economic Theory”. – London: Pinter Publishers, 1988.
7. Хакимов Ш. “Инновацион иқтисодиёт: назарий ва амалий жиҳатлари”. – Т.: “Иқтисодиёт”, 2020.
8. James Markusen, “Trade and The Gains from Trade with Imperfect Competition” - 1989
9. UNCTAD (2023). Technology and Innovation Report 2023.
10. Borisov YE.F. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. - 2-ye izd., pererab. usinovit - M.: TK Uelbi, Izdvo Prospekt, 2010. - 544 s.
11. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/geografiya/o-zbekiston-respublikasi-milliy-iqtisodiyotinig-rivojlanishi-va-shakllanishi>
12. Zubko N.M. Ekonomicheskaya teoriya. - Minsk: NTS API, 2012. 61 s.
13. <https://lex.uz/acts/-4147294>; <https://yuz.uz/uz/news/milliy-iqtisodiyotni-rivojlantirishdagi-ustuvor-vazifalar-besh-yillik-muvaffaqiyatli-islohotlar--yangi-muvaffaqiyatning-boshlanishi>
14. I. K. Stankovskaya, I. A. Strelets. Ekonomicheskaya teoriya.: Uchebnik. / 3-ye izd., ispr. – М.: «Eksmo», 2009. – 448 s.